

**INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMNING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI**

**ОСОБЕННОСТИ ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ**

**CHARACTERISTICS OF INTEGRATED EDUCATION**

**Bobomurodova Latofat Elmurodovna**

Innovatsion texnologiyalar universiteti,  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Karimova Uzlifat Halimjon qizi**

Samarqand davlat pedagogika instituti  
1-bosqich magistranti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada integratsiyalashgan ta'lim tushunchasi ,uning mohiyati, asosiy xususiyatlari va zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, integratsiyalashgan yondashuvning tarbiyalanuvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, fanlararo aloqadorlikni kuchaytirishga va kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishdagi ahamiyatini tahlil qilamiz.

**Abstract**

This article examines the concept of integrated education, its essence, key characteristics , and its role in the modern educational process. Furthermore , it analyzes the significance of the integrated approach in promoting learners personal development , strengthening interdisciplinary connections , and facilitating the implementation of a competency-based approach in education.

**Аннотация**

В данной статье рассматривается понятие интегрированного образования, его сущность, основные характеристики и роль в современном образовательном процессе. Кроме того, анализируется значение интегрированного подхода в развитии личности обучающихся, укреплении межпредметных связей и реализации компетентностного подхода в системе образования.

**Kalit soʻzlar:** Integratsiyalashgan taʼlim, fanlararo bogʻliqlik, kompetensiya, ijodiy tafakkur, pedagogik texnologiya.

**Ключевые слова:** интегрированное образование, межпредметная связь, компетенция, творческое мышление, педагогическая технология.

**Keywords:** Integrated education, interdisciplinary connection, competence, creative thinking, pedagogical technology.

**KIRISH:** Integratsiyalashgan taʼlim-bu turli fanlar mazmunini oʻzaro bogʻlash orqali taʼlim jarayonini tashkil etish boʻlib, u tarbiyalanuvchilarning bilimlarini yanada chuqurlashtirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda oʻrganilayotgan mashgʻulotni yaxlit holda anglashiga yordam beradi. Ayniqsa, maktabgacha va boshlangʻich taʼlim bosqichlarida integratsiyalashgan taʼlim bolalarning qiziqishini oshirish, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirish hamda bilimlarni hayotiy vaziyatlar bilan bogʻlash imkonini yaratdi.

Shuningdek, integratsiyalashgan taʼlim oʻquv jarayonining samaradorligini oshirish, tarbiyalanuvchilarda kompleks bilim va koʻnikmalarni shakillantirish, taʼlim jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu sababli, integratsiyalashgan taʼlimning oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish va ularni taʼlim jarayoniga samarali tadbiiq etish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli qarori “Taʼlim tizimini integratsiyalashgan yondashuv asosida

modernizatsiya qilish to‘g‘risida”gi qarori ta’lim-tarbiya tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish hamda pedagog kadrlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI:** Integratsiyalashgan ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini bir qator pedagog olimlarimizning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Tursunov, A va Xasanov, B. “Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar” nomli kitobida ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning nazariy va amaliy asoslarini yoritib bergan. Shuningdek ular, integratsiyalashgan ta’lim yondashuvi tarbiyalanuvchilarning bilimlarini yaxlit holda o‘zlashtirishiga, mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qilishini qayd etadilar.[1]

A.Saidov “Integratsiya va ta’lim:amaliy yondashuvlar” nomli maqolasida ta’lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuvni qo‘llashning amaliy jihatlarini tahlil qilgan. Integratsiyalshgan ta’lim o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, fanlararo aloqadorlikni ta’minlash hamda tarbiyalanuvchilar bilimlarni yaxlit holda o‘zlashtirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi.[2]

L.Bobomurodovanning “Texnik ijodkorlik va dizayn” o‘quv qo‘llanmasida zamonaviy ta’limda qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyalar, kompyuterli o‘qitish, muammoli o‘qitish, an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar, ijodiy namunalar xususida mulohazalar yuritilgan.[3]

S.Rahmonov “Kelajakda ta’limda integratsiya:tendensiyalar va istiqbollar” nomli maqolasida ta’lim tizimida integratsiyalashgan yondashuvning rivojlanish istiqbollari tahlil qilgan. Muallif integratsiya zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u tarbiyalanuvchilarda kompleks bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakillantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Shuningdek, integratsiyalashgan

ta'lim jarayonini innovatsion asosda tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etishi qayd etilgan.[4]

**ASOSIY QISM:** Integratsiya (lotincha integratio-bir butunlikka keltirish) deganda turli fanlar yoki faoliyat turlarini yagona maqsad sari yo'naltirgan holda uyg'unlashtirish jarayoni hisoblanadi. Ta'lim jarayonida ushbu tushuncha fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish tarbiyalanuvchilarda tizimli fikrlashni rivojlantirish va ularning dunyoqarashini kengaytirish bilan izohlanadi.

Integratsion yondashuv pedagogik jarayonning har qanday tarkibiy qismidagi integratsiya tamoyilini amalga oshirish, pedagogik jarayonning izchiligini ta'minlashni anglatadi.

Integratsiyalashgan ta'lim-bu turli fanlar mazmunini o'zaro bog'lash,ularni yagona tizimda o'qitish orqali o'quvchilarda kompleks bilimlarni shakillantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida o'qituvchi turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni namoyon qilib beradi o'quvchilarni bilimlarini chuqurroq anglashiga sharoit yaratadi.Bu jarayon ta'lim mazmunini boyitadi hamda o'quv faoliyatini yanada qiziqarli qiladi.

Integratsiyalashgan ta'lim bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular quydagilardan iborat:

1.Yaxlit bilim tizimini shakillantirish-ushbu ta'lim turi o'quvchilarda bilimlarni alohida emas,aksincha yagona tizim sifatida shakillantiradi.Bu esa o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi.

2.Fanlararo bog'liqlik-integratsiyalashgan ta'limning asosiy xususiyatlaridan biri fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'likni ta'minlashdir.

3. Amaliy yo‘naltirilganlik-integratsiyalashgan ta‘lim o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotga bog‘lashga yordam beradi.

4. O‘quv faoliyatining faollashuvi-integratsiyalashgan ta‘lim jarayonida o‘quvchilar faol ishtirok etadi. Turli metodlar, didaktik o‘yinlar va interaktiv usullar qo‘llanilishi o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi.

5. Tafakkurni rivojlantirish-fanlararo bog‘lik asosida tashkil etilgan ta‘lim o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

Integratsiyalashgan ta‘limni samarali tashkil etish uchun turli pedagogik metodlardan foydalanish mumkin.

1. Muammoli ta‘lim metodi-ushbu metod o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. O‘quvchilar muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida turli fanlardan olingan bilimlardan foydalanadi.

2. Loyihaviy faoliyat-integratsiyalashgan ta‘limning eng muhim shakillaridan biri hisoblanadi. O‘quvchilar loyiha ustida ishlash jarayonida turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtiradi.

3. Interaktiv metodlar-o‘quvchilarning ta‘lim jarayonida faol ishtirok etishini ta‘minlaydi.

Integratsiyalashgan ta‘limning bir qator afzalliklari mavjud hisoblanadi. Integratsiyalashgan ta‘lim bilimlarni tizimli shakillanishiga, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, mustaqil fikrlash ko‘nikmasini rivojlanishi hamda olgan bilimlarini amaliyotga qo‘llashga yordam beradi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda ,integratsiyalashgan ta‘lim zamonaviy ta‘lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv

o‘quvchilarning bilimini rivojlantirish ,ularning dunyoqarashini kengaytirish hamda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan ta’lim orqali o‘quvchilar turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglab yetadi va olgan bilimlarini hayotga bog‘laydi. Shu sababli ta’lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuvdan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli qarori –“Ta’lim tizimini integratsiyalashgan yondashuv asosida modernizatsiya qilish to‘g‘risida”.
- 2.Tursunov, A. Xasanov, B. “Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar”. Toshkent :TDPU nashriyoti.
- 3.A.Saidov “Integratsiya va ta’lim: Amaliy yondashuvlar”. Ta’lim va innovatsiyalar jurnali ,2022.
- 4.Bobomurodova L. "Texnik ijodkorlik va dizayn" fanidan amaliy mashg'ulotlar. O‘quv qo'llanma. SamDU-2022. ISBN 978-9943-8851-6-5. Samarqand, 67 b
- 5.S.Rahmonov. “Kelajakda ta’limda integratsiya:tendensiyalar va istiqbollar. O'zbekiston Ta’lim Tizimi, 2023.